

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O'zbek va ingliz tillaridagi ayrim antroponimlar semantikasi masalalari	444
I.V.Xoldarova, X.A.Erg'oziyeva	
Fonetikani o'qitish orqali o'quvchilar nutqini shakllantirish	448
M.Kaxarova, N.Yunusaliyeva	
O'zbek va nemis tillarida bayram bilan bog'liq leksik birliklar tadqiqi	455
D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova	
Iboralarning lingvopoetik xususiyatlari (Siddiq Mo'min she'riyati misolida).....	458
O.K.Rakhmatova, G.N.Davlyatova	
The structure of speech acts in various types of discourse	462
X.M.Sotvaldieva	
Paremiologiya fan sifatida	467
A.E.Botirova	
Grammatik terminlar lug'atini yaratishda muammo va yechimlar	473
R.Radjabov	
Orfoepiya va uning normalari to'g'risida fikr-mulohazalar	478
M.N.Raxmanova	
Texnik oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun ingliz tili darslarida kasbiy matnlarni tanlash usullari	482
U.B.Almaz, O.X.Barziyev	
Milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi she'riyati va Ozarbayjon adabiyotidagi mazmuniy mushtarakliklar	486
D.Sh.Islomov	
His-tuyg'uning paydo bo'lishi, uning asosiy holatlari psixolog olim Kerroll Ellis Izard talqinida	493
M.M.Abdujabborova, M.M.Yakubbayev	
Talabalarga ingliz tilini o'qitishda aqliy hujum metodini qo'llashning o'rni (nofilologik ta'lim yo'nalishi misolida).....	498
G.A.Saydaliyeva	
Geshtaltlarning turli sinonimik lug'atlarda va kontekstda ifodalanishi.....	501
G.N.Isakova	
Fransuz tilidagi muqaddas matnlarga oid qanotli iboralarning semantikasiga doir.....	506
J.J.Egamberdiyev	
Lug'at zamon va davr elchisi.....	511
Sh.Sh.Zarmasov	
Ot turkumi ma'no guruhini modellashtirishning lingvostatistik tahlili	515
G.P.Nazarova, F.B.Alimova	
"Harry potter" turkumidagi asarlarda neologizm va okkazonalizmlarning qo'llanilish tadqiqi.....	522
S.A.Mannonova	
Tijoriy yozishmalarda kommunikativ-pragmatik intensiyalarining o'xshash va farqli jihatlari.....	526
N.K.Ergasheva	
Dynamic interaction of foreign languages: factors of development in a global context	529
A.K.Usmonov	
Monologik nutqda bog'lovchilarning pragmatik xususiyatlari	533
N.K.Abbasova	
Evaluating the impact of digital tools in classrooms and online learning platforms	538
D.G.O'rinboyeva	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga ingliz tilini o'rgatish xususida ayrim mulohazalar	542
N.K.Abbasova, M.Abdulkhakimova	
Promoting oral communication through reading integration.....	545
Д.Ш.Рахмонова, Д.У.Ашурова	
Когнитивный подход к анализу художественного текста	550



UO'K 378.147

**TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI UCHUN INGLIZ TILI
DARSLARIDA KASBIY MATNLARNI TANLASH USULLARI****METHODS OF SELECTING PROFESSIONAL TEXTS IN ENGLISH LESSONS FOR
STUDENTS OF TECHNICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS****МЕТОДЫ ПОДБОРА ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ТЕКСТОВ НА УРОКАХ
АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА ДЛЯ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ
ЗАВЕДЕНИЙ****Raxmanova Muxayyo Nabijanovna**

Namangan muhandislik qurilish instituti xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada hozirgi kunda dolzarbligicha qolayotgan mavzu ya'ni oliy ta'limda ingliz tili darslarini sohaga bog'lab o'tishning metodlari haqida so'z boradi. Maqolada sohaga oid darslar tashkil etish zamonamiz talabi ekanligi va bu borada davlat rahbari tomonidan chiqarilgan qarorlar asosida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi tashkil qilingani ham e'tirof etilgan. Muallif tomonidan kasbiy matnlarni qayerdan olish va qay tartibda undan darsda foydalanish bo'yicha xorijiy va o'zbek olimlari fikrlariga tayanib tavsiyalar berilgan. Texnika oliy ta'limlarida o'tiladigan ingliz tili darslari manbalarining asosiy qismini kasbiy matnlar tashkil qilishi va ingliz tili darslarida ko'zlanadigan to'rt maqsad ya'ni amaliy, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlardan tashqari beshinchi maqsad kasbiy maqsad ham qo'yilishi haqida fikrlar yuritilgan. Umumiy ingliz tili va maxsus maqsadlar uchun ingliz tili fanlarining bir-biridan farqini turli xil adabiyotlardagi fikrlar asosida tushuntirilgan. Maqola turli xil kasbiy matnlar bilan boyitilgan va bu asosida kasbiy matnlarning xususiyatlari va talablari aytib o'tilgan.

Аннотация

В этой статье речь пойдет о теме, которая остается актуальной в настоящее время, а именно о методах привязки уроков английского языка в высшем образовании к отрасли. В статье также признается, что организация отраслевых занятий является требованием современности и что на основе решений, принятых главой государства, было создано Агентство по популяризации изучения иностранных языков. Автор дал рекомендации о том, где взять профессиональные тексты и в каком порядке использовать их на уроке, опираясь на мнения зарубежных и узбекских ученых. Было высказано предположение, что основную часть ресурсов уроков английского языка, проводимых в техническом высшем образовании, составляют профессиональные тексты, и что помимо четырех целей, преследуемых на уроках английского языка, то есть практической, образовательной, образовательной и развивающей, пятая цель также преследуется профессиональной. Различие между дисциплинами английского языка общего и специального назначения объясняется на основе мнений в различной литературе. Статья обогащена различными профессиональными текстами, и на ее основе излагаются особенности и требования профессиональных текстов.

Abstract

This article will focus on a topic that remains relevant at the moment, namely the methods of linking English lessons in higher education to the industry. The article also recognizes that the organization of industry classes is a requirement of modernity and that on the basis of decisions taken by the head of state, an Agency for the Popularization of Foreign Language Learning was created. The author gave recommendations on where to get professional texts and in what order to use them in the lesson, based on the opinions of foreign and Uzbek scientists. It was suggested that the main part of the resources of English lessons conducted in technical higher education are professional texts, and that in addition to the four goals pursued in English lessons, that is, practical, educational, educational and developmental, the fifth goal is also pursued professionally. The difference between the disciplines of general and special purpose English is explained on the basis of opinions in various literature. The article is enriched with various professional texts, and on its basis the features and requirements of professional texts are outlined.

Kalit so'zlar: metod, umumiy ingliz tili, matnlar, maqsad, xorijiy til, tavsiya, manba, bilim darajasi, uslub, sohaviy atamalar, motivatsiya, maxsus, mutaxassislik

Ключевые слова: метод, общий английский, текст, иностранный язык, рекомендация, ресурс, уровень, подход, профессиональные термины, мотивация, специальный, квалификация

Key words: method, general English, texts, purpose, foreign language, recommendation, resource, level, approach, professional terms, motivation, special, qualification

KIRISH

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj o'sib boryapti. Bu davr esa insonlarning zamon bilan hamnafas bo'lishini talab qiladi. Shunday ekan, turli xil kasb egalari faqat o'z ona tillarinigina bilishlari, sohalari bo'yicha yetuk kadr bo'lishlari uchun yetarli emasligini his qilishlari kerak. Buning uchun xorijiy tillarni o'rganish va o'qitish tizimini yanada zamonaviy metodlar bilan takomillashtirilishi hamda chet tillarni o'rganishga bo'lgan motivatsiyaning oshirilishi nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun davlatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha turli xil sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Bular Prezidentimizning 2021-yil 10-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham o'z tasdig'ini topadi. Prezidentning ushbu qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi tashkil etildi. Til o'rganish va o'qitish borasida dunyoning yetuk olimlari tajribasida samarali natija berib kelayotgan o'qitish metodikalari, uslublari asosida turli xil soha kadrlariga chet tillarni o'qitish borasida tavsiyalarni ishlab chiqish kabi ko'plab salmoqli ishlar bajarilib kelinmoqda.[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qariyb bir asrdan buyon dunyo olimlari ingliz tilini nofilolog talabalarga ham o'rgatish kerakligini o'z nutqlarida va tajribalarida gapirib kelyaptilar. Dadly Evans, Sent- Jon, T.Xatchinson, A. Uoters metodikaning ushbu yo'nalishi asoschilaridan ekanligini butun dunyo olimlari tan oladi. Xatchinson va Uoters: "Ingliz tili endi til o'qituvchilarining kasb doirasidan chiqib, boshqa soha vakillarining xohish-istaklari, ehtiyojlari va talablariga moslashib boradi", - deb ta'kidlagan edi. [2] Bu esa ingliz tili o'qituvchilaridan kattagina mehnat talab qiladi.

Bundan tashqari ESP darslarida til xususiyatlari emas, balki til o'rganish maqsadlari turishi lozimligini zamonamiz olimlari va pedagoglari ham qayta-qayta ta'kidlab aytishmoqda. Masalan, o'zbek metodik olimi Jamol Jalolov oliy o'quv yurtlarida xorijiy tillarni o'qitishni ikki guruhga, ya'ni nolisoniy va lisoniyga bo'lgan.[3] Nolisoniy ta'lim texnika, tibbiyot, pedagogika, iqtisodiyot yo'nalishlarida ta'lim olayotgan talabalar uchun, lisoniy ta'lim esa filologiya yo'nalishlari uchun mo'ljallangan xorijiy tillarni o'rgatish metodikasidir. Hozirgi kunga kelib lisoniy atamasi umumiy xorijiy til va nolisoniy esa maxsus maqsadlar uchun xorijiy tillar deb yuritilmoqda.

Bundan tashqari ushbu olimimiz oliy ta'limlarda xorijiy til o'qitishdan ko'zlanadigan to'rt maqsad, ya'ni amaliy, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlardan tashqari beshinchi maqsad kasbiy maqsad ham qo'yilishini aytib o'tgan. Lekin mohiyat-e'tibori jihatidan muayyan o'quv yurti talabasi uchun maqsadlar har xil talqin etiladi, deb ta'kidlagandi. [3] Masalan, Namangan muhandislik – qurilish institutimizda turli xil yo'nalishlar, ya'ni qurilish, transport, energetika, iqtisod, oziq-ovqat texnologiyalari yo'nalishlari mavjud bo'lib, ushbu yo'nalishlarning har biriga o'z mutaxassisligi bo'yicha mavzular tanlanishi kerak.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Jeremy Harmer o'zining "ESSENTIAL CORE CONCEPTS IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING" nomli kitobida umumiy ingliz tili va maxsus maqsadlar uchun ingliz tili darslarini solishtirib, umumiy ingliz tili darslarida o'quvchilar matnlarni grammatika va so'z boyliklarini boyitish uchun o'rganadilar, ammo maxsus maqsadli ingliz tilida esa matnlar aynan bir sohaga va talabalar mutaxassisligiga moslanishi kerak deb yozgan.[4] Masalan, umumiy ingliz tili darslaridagi mavzular quyidagicha bo'lishi mumkin: Unit 1 = the verb "to be". About myself, Unit 2 = the verb "to have". My family, Unit 3 = The present simple tense. My daily routine va hokazolar. Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili darslarimiz uchun quyidagi mavzularni tanlay olishimiz mumkin (qurilish fakulteti misolida): 1: How does the building build? 2: Gadgets in the constructions 3: Top ten construction buildings in the world, etc.

Lekin umumiy matnlar ingliz tili darsimizning asosiy negizi bo'lib xizmat qilishi kerak. Ushbu matnlardagi so'zlarni mazsus sohaviy atamalarga almashtirirgan holda ham maxsus maqsadli ingliz tili darslarimizda foydalanishimiz mumkin. Masalan, Harun Rashid is 35 years old. He comes from Alexandria, but lives and works in Cairo. Harun is a general **contractor**. He hires **subcontractors** to work **on bulding projects**. He also organizes the material and equipment. Harun has a lot of experience in the **construction industry**. Harun always works hard. Sometimes

he has meetings with **clients**. Sometimes he visits **construction sites**. And sometimes he deals with **suppliers**. He is always busy. But Friday is different. Harun never works on Fridays. Friday is my day off.

Ko'rinib turibdiki, ushbu matndagi ajratib ko'rsatilgan so'zlar sohaviy atamalarga o'zgartirilgan. Ushbu matnda talabalar qurilish yo'nalishiga mos so'zlarni ko'rib chiqishlari va osongina o'zi haqida gapirib berishlari mumkin. Shu yo'l bilan biz umumiy ingliz tili va maxsus maqsadli ingliz tilini birlashtirgan holda dars samaradorligini va talabalarning kasbiy bilimlarini oshira olamiz.

Odatda internet manbalarida ingliz tilida har xil sohalar uchun tayyorlangan manbalar ko'p. Til o'qituvchilari shu manbalardan unumli foydalansa, darsda talabaning ishtiroki va uning darsga bo'lgan qiziqishi yanada oshadi. Lekin bu matnlar har doim ham oson va talabalar uchun tushunarli tilda yozilavermaydi. Biz ustozlar ingliz tili talabalar uchun ikkinchi til ekanligini esdan chiqarmasligimiz kerak. Har doim ham guruhdagi talabalar qiziqishi va bilim darajasi bir xil bo'lavermaydi.. Tabiiyki, bu darsda talabalar bilan ishlashda qiyinchilik tug'diradi. Bu esa o'qituvchidan darsga chuqurroq yondashishini talab qiladi. Matn tanlayotganimizda talabalarning bilim darajasini va qiziqishini hisobga olgan holda mutaxassisligiga mos matnlarni osonlashtirib berishimiz ham mumkin. Bu fikrlarni Jeremy Harmer "ESSENTIAL CORE CONCEPTS IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING" nomli kitobida tasdiqlagan.[4]

1. APPROCHES TO BUILDING HOUSES

In case you're considering almost building a modern domestic on your arrive, it's imperative to do your inquire about to begin with. There are a parcel of distinctive builders out there, and each one has its possess approach to building homes. In this video, we cover seven key subjects that you simply have to be examine with each builder you consider. These subjects extend from distinctive estimating and financing approaches to development and assessment forms. We moreover conduct a live Q&A to cover anything we missed. So, whether you're just starting to do your research or you're prepared to form a choice, this video will assist you make the most excellent conceivable choice for your family! [4]

2. APPROCHES TO BUILDING HOUSES

If you're thinking about building a new home on your land, it's important to do your research first. There are a lot of different builders out there, and each one has its own approach to building homes. In this video, we cover seven key topics that you need to discuss with every builder you consider. These topics range from different pricing and financing approaches to construction and inspection processes. We also conduct a live Q&A to cover anything we missed. So, whether you're just starting to do your research or you're ready to make a decision, this video will help you make the best possible choice for your family!

Yuqoridagi internet saytlaridan olingan ikkita matnni tahlil qilganimizda ikkala matnning ham ma'nosi bir xilligi, ammo ikkinchi matn birinchisidan ko'ra osonligini anglab olamiz. Ushbu usul talabalarning matnlarni osonroq o'rganishiga yordam beradi. Darslarimizda osondan qiyinga degan so'zni o'zimizga shior qilib olsak, har doim darslarimiz samarali bo'ladi va talabalarimizning nafaqat ingliz tiliga, balki o'z sohalariga ham bo'lgan intilishlari oshadi.

Donesch-Jezo, Ewa & Modrzewski, Andrzej & Hamdanat, Imadlar English for Specific Purposes: What does it mean and why is it different from teaching General English? (2020) maqolalarida maxsus maqsadlar uchun ingliz tili fani o'qituvchilari tez-tez talabalar va ularning mutaxassislik fani o'qituvchilari bilan suhbatlar uyushtirib, ularning kasblariga oid manbalarni o'rganib chiqishlari va shu asnoda dars uchun matnlar tanlashlari lozim, degan fikrlarni ham bildirishgan.[5] Bu esa o'qituvchilardan tinmay o'z ustilarida ishlashlari, doim zamon bilan hamnafas bo'lishlari, darslarning samaradorligini oshirish uchun internet saytlaridan foydalanishlarini talab qiladi, chunki ular nafaqat ingliz tili, balki talabalar tahsil olayotgan kasbiy fanlarini ham yaxshi bilishlari kerak.[6]

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kasbiy matnlarni o'rganishni mahsuldor va qiziqarli qilish hamda boyitish maqsadida faqat darsliklar bilan cheklanib qolmasdan, sohaga va kasbga doir manbalardan keng foydalanib, ta'lim berishga chuqurroq yondashilsa, ijobiy natijalarga erishish mumkin. Darsda taqdim etilayotgan matnlar tushunarli, ravon, oson tilda bo'lsa, dars samaradorligi

TILSHUNOSLIK

yana ham oshadi. Chet tilini boshqa mutaxassislik fanlari bilan bog'lab o'rgatish darsda talabalarning faol qatnashishiga, o'z mutaxassisliklariga oid yangiliklardan xabardor bo'lishiga, internet manbalaridan bemaol foydalanishiga zamin yaratadi. Chet tillarni o'rganish har bir kasb egalari uchun butun dunyo eshiklarini ochadi va o'z kasblari bo'yicha yangiliklarni o'rganishlari va malaka oshirishlari uchun imkoniyat yaratadi. Zero, zukko xalqimiz: "Bitta til bilgan-bitta odam, ikkita til bilgan -ikkita odam" deb bejizga aytishmagan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. English for Specific Purposes <https://www.britishcouncil.uz/teach/english-specific-purposes>
2. Muhammad Ali Chalikandy. Muayyan maqsadda ingliz tilini o'rgatishning keng qamrovli usuli. Arab World English Journal, AWEJ Volume.4 Number.4, 2013
3. J.Jalolov. "Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi -2012
4. ESSENTIAL CORE CONCEPTS IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING Jeremy Harmer 2012
5. Donesch-Jezo, Ewa & Modrzewski, Andrzej & Hamdanat, Imad. (2020). English for Specific Purposes: What does it mean and why is it different from teaching General English?.
6. Muxayyo, R. (2023). QURILISH YO'NALISH TALABALARIDA INGLIZ TILI FANINI O'QITISH METODIKASI: QURILISH YO'NALISH TALABALARIDA INGLIZ TILI FANINI O'QITISH METODIKASI. "Qurilish va ta'lim" ilmiy jurnali, 4(4.1), 691-695.